



**INFORMATIKANI O'QITISHDA TA'LIMNING NOCHIZIQLI
TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH TALABALARNING
MUSTAQIL BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSI
SIFATIDA**

Kilichev Nurilla Abbosovich

Qarshi davlat texnika universiteti

e_mail: nurillaqilichev005@gmail.com; Tel: +998 991940710.

Annotasiya. Mazkur maqolada informatika fanini o'qitishda ta'limning nochiziqli texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarning mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirish masalalari bayon qilingan. Informatikanio 'qitishda mustaqil ishlarni talabaning maqsadli, ichki yo 'naltirilgan mustaqil biluv faoliyati sifatida ko 'rib chiqilgan. Ushbu faoliyat talabaning axborot texnologiyalaridan foydalangan holda murakkab kasbiy yo 'naltirilgan vazifalarni bajarishiga asoslanishi, buning natijasida ta'lim maqsadlari amalga oshirilishi hamda faol kasbiy pozisiya va ijodiy faoliyat uslubi rivojlanishi tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: axborot, texnologiyalar, elektron, bilish, mustaqil, rivojlanish, tamoyil, talaba, shaxs.

Kirish. Zamonaviy sharoitlarda bilimning roli shunchalik ortganki, u jamiyat rivojlanishining asosiy omiliga aylangan. O'z navbatida, bu ta'limning yanada samarali texnologiyalarini ishlab chiqish va ta'lim amaliyotiga joriy qilish uchun kuchli rag'bat bo'lib xizmat qilmoqda. An'anaviy ta'lim shaxs o'z-o'zini rivojlantirishi jarayonini loyihalash va konstruksiyalashga yo'naltirilmagan hamda uning spontaligi omilini e'tiborga olmaydi. Bunda talabalarning bilish faolligi va tanlash qobiliyati o'qituvchilar nazar doirasidan tashqarida qolib ketadi. Talabaning motivasiya doirasi hisobga olinmaydi, o'quv materialiga ishlov berishning afzal ko'rilgan strategiyasini, kerakli ma'lumotlarni izlashning bilishga oid tarzini tanlash huquqi berilmaydi, ta'lim oluvchilarning shaxsiy tajribasi hisobga olinmaydi.



Biz informatika bo'yicha mustaqil ishni talabning maqsadli, ichki yo'naltirilgan mustaqil biluv faoliyati sifatida ko'rib chiqamiz, ushbu faoliyat talabning axborot texnologiyalaridan foydalangan holda tobora murakkab kasbiy yo'naltirilgan vazifalarni bajarishiga asoslanib, buning natijasida ta'lim maqsadlari amalga oshiriladi, faol kasbiy pozitsiya va ijodiy faoliyat uslubi rivojlanadi. Nazariy tadqiqotlar ta'lim modellarining xilma-xilligini qurish mantiqining ikki xiliga bo'lish mumkinligini ko'rsatmoqda, bular:

- chiziqli, izchil, qat'iy belgilangan (an'anaviy), uning maqsadi davlat talablari darajasida shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish, professionallashtirish (kasb egasi qilish);

- ta'lim jarayonini nochiziqli (noizchil, bir jinsli bo'lmagan, variativ tarzda) tashkil qilish.

Mazkur ikki yondashuv maqsadlari, ta'lim mazmuni, talabalar bilish jarayonini tashkil qilish usullari va yo'llari, pedagogik boshqarishning xarakteri bilan farqlanadi.

Ta'limning an'anaviy tizimida ta'limning asosiy maqsadi muayyan bilimlar, malaka va ko'nikmalarga, ya'ni tashqaridan berilgan me'yorlarga ega bo'lishdan iborat.

Talabalar faoliyati asosan "tayyor" bilimlarni o'zlashtirish bilan bog'liq va reproduktiv hisoblanadi. Anglash predmeti – bu bilimlar, qisman faoliyat algoritmlari, kamdan-kam hollarda – yechim usullari va yo'llarini izlash va tushunishni talab qiladigan harakatlar yoki muammolarning o'zi hisoblanadi (E. Yu. Ignateva) [66].

An'anaviy ta'lim shaxs o'z-o'zini rivojlantirishi jarayonini loyihalash va konstruksiyalashga yo'naltirilmagan hamda uning spontaligi omilini e'tiborga olmaydi. Bunda talabalarning bilish faolligi va tanlash qobiliyati o'qituvchilar nazar doirasidan tashqarida qolib ketadi. Talabning motivatsiya doirasi hisobga olinmaydi, o'quv materialiga ishlov berishning afzal ko'rilgan strategiyasini, kerakli ma'lumotlarni izlashning bilishga oid tarzini tanlash huquqi berilmaydi, ta'lim oluvchilarning shaxsiy tajribasi hisobga olinmaydi.



An'anaviy ta'lim ta'lim oluvchilardan asosan predmetli bilimlarni o'zlashtirishni, muayyan ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni talab qiladi. Bunda ta'lim oluvchilar faoliyati xarakteriga ko'ra passiv, talabarga taqdim qilinayotgan ma'lumotlarni idrok qilish, o'zlashtirish, aytib berishga qaratilgan bo'ladi. Ta'limning an'anaviy modeli doirasida faqat o'qituvchi ta'lim jarayonining faol sub'ekti bo'lib qoladi.

Xulosa. An'anaviy yondashuvda asosiy e'tibor butun ta'lim jarayonini boshqaradigan hamda asosiy shaxs bo'lgan o'qituvchiga qaratilgan. Aralash modelda yondashuv shaxsga markazlashgan yondashuvga o'zgaradi, asosiy e'tibor talabalarga qaratiladi. An'anaviy ta'lim jarayonini aralash ta'lim bilan almashtirishda bilim va tushunishga taalluqli darajalar talaba tomonidan yangi materialni mustaqil o'rganish orqali mustaqil o'tiladi, so'ngra foydalanish, tahlil qilish, sintez qilish va baholash eng muhim bosqichlari o'qituvchi bilan birgalikda o'tiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алексеева Т. Е. Реализация традиционных дидактических принципов в условиях информатизации образования / Т. Е. Алексеева // СИСП. – 2015. – № 5 (49). – С. 393-405.
2. Мультимедиа в образовании : специализированный учебный курс /Бент Б. Андресен, Катя ван ден Бринк ; авторизованный пер. с англ. — 2-е изд., испр. и доп. — М. : Дрофа, 2007. 224 с.
3. Петрова И.А. Организация самостоятельной работы студентов в личностно-центрированной информационно-образовательной среде вуза //Современные наукоемкие технологии. – 2016. – № 2-3. – С. 552-556; URL: <https://www.top-technologies.ru/ru/article/view?id=35672>
4. Полат Е. С. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования : учеб. пособие для студ. вузов / Е. С. Полат, М. Ю. Бухаркина. – 2-е изд., стер. – М: Академия, 2008. – 368 с.